Аннотация. Дистанционные банковские услуги (ДБУ) в последние годы стали важной составляющей глобальной финансовой системы, значительно повысив уровень использования цифровых технологий в процессе предоставления банковских услуг. В данном исследовании на основе сравнительного анализа изучены тенденции развития дистанционных банковских услуг за 2020–2026 годы, их теоретические основы, а также передовой зарубежный опыт. В качестве методологической базы использованы модель принятия технологий (TAM), теория финансовой инклюзии, концепция диффузии инноваций, а также принципы финансовой устойчивости в рамках Basel III.



В статье проанализирован опыт таких стран, как США, Китай, Индия, Южная Корея, Сингапур и Великобритания, выявлены факторы их развития и институциональные механизмы формирования цифровой финансовой инфраструктуры. Результаты исследования показывают, что в Узбекистане дистанционные банковские услуги развиваются быстрыми темпами, однако остаются определённые проблемы в области финансовой инклюзии, развития цифровой инфраструктуры и fintech-экосистемы.

Ключевые слова: дистанционные банковские услуги, интернет-банкинг, мобильный банкинг, fintech, цифровая трансформация, Open Banking, CBDC, финансовая инклюзия, банковская система Узбекистана.

KIRISH

XXI asrda global moliyaviy tizimning rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu jarayon bank xizmatlari ko'rsatish modelining tubdan transformatsiyasiga olib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy institutlar faoliyatida innovatsion texnologiyalarni qo'llash darajasi bank sektorining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Masofaviy bank xizmatlari bank operatsiyalarini mijozning bank filialiga bevosita tashrif buyurmasdan, telekommunikatsiya va raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirish imkonini beruvchi xizmatlar majmuini anglatadi. Internet-banking, mobil banking, elektron to'lov tizimlari hamda fintech platformalari ushbu xizmatlarning asosiy tarkibiy elementlari hisoblanadi.

So'nggi yillarda mazkur sohaning rivojlanishiga COVID-19 pandemiyasi sezilarli darajada turtki berdi. Pandemiya davrida jismoniy kontaktlarni cheklash zarurati bank xizmatlarining raqamli kanallar orqali amalga oshirilishini keskin jadallashtirdi. Xalqaro konsalting kompaniyalari tahlillariga ko'ra, 2020-yilning birinchi yarmida global miqyosda mobil banking operatsiyalari hajmi 65 foizga oshgan. Shu bilan birga, McKinsey & Company tadqiqotlariga ko'ra, bank xizmatlarini raqamli platformalar orqali ko'rsatish operatsion xarajatlarni o'rtacha 20–45 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

Statista statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga kelib dunyo bo'yicha mobil banking foydalanuvchilari soni 3,6 milliard nafarga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2020-yildagi 1,9 milliard foydalanuvchiga nisbatan qariyb ikki barobar o'sishni anglatadi. Mazkur tendensiyalar raqamli bank xizmatlari global moliyaviy tizimning barqaror rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston bank tizimida ham raqamli transformatsiya jarayonlari so'nggi yillarda sezilarli darajada jadallashdi. Elektron to'lov infratuzilmasining rivojlanishi, mobil banking ilovalari sonining ortishi hamda fintech xizmatlarining kengayishi natijasida bank xizmatlarining raqamli kanallari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Xususan, elektron to'lovlar hajmi 2020-yildagi 31,2 trillion so'mdan 2025-yilda 487,3 trillion so'mga yetib, 15,6 barobar o'sishni qayd etdi.

Shu bilan birga, mamlakatda moliyaviy inklyuzivlik darajasi 2024-yilda 61 foizni, naqdsiz operatsiyalar ulushi esa 44 foizni tashkil etgani ushbu ko'rsatkichlar rivojlangan davlatlar darajasiga hali to'liq yetmaganligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi masofaviy bank xizmatlarining ilmiy-nazariy asoslarini tizimlashtirish, 2020–2026-yillar davomida yetakchi mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekiston bank tizimida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Masofaviy bank xizmatlariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar so'nggi 6 yilda (2020–2026) sezilarli darajada boyib, to'rtta asosiy yo'nalishni qamrab olmoqda: (1) foydalanuvchi xatti-harakati va qabul qilish modellari; (2) moliyaviy inklyuzivlik; (3) fintech va reguliyativ muhit; (4) kiberxavfsizlik. Quyida har bir yo'nalishning asosiy manbalari tahlil etiladi.

Foydalanuvchi xatti-harakati va TAM/UTAUT modellari bo'yicha Davis [2] tomonidan ishlab chiqilgan "Texnologiyani qabul qilish modeli (TAM)" MBX tadqiqotlarining nazariy poydevori bo'lib qolmoqda. Venkatesh va boshq. [3] uni UTAUT2 ga kengaytirib, hedonik motivatsiya va odatlanganlik (habit) omillarini qo'shdi. Sharma va Govindaluri [4] Hindistonda 1200 respondentlik empirik tadqiqotda mobil bankingni qabul qilishga ishonch (trust) omilining foydalilik bilan teng ahamiyatga ega ekanini aniqladi. Marakarimi va boshq. [5] 47 ta tadqiqotga asoslangan meta-tahlilda TAM modelining MBX kontekstida tushuntirish kuchi o'rtacha $R^2 = 0,52$ ekanini ko'rsatdi. Al-Otaibi va boshq. [6] Saudiya Arabistonida hedonik motivatsiya yoshlar guruhida qabul qilish ehtimolini 40% ga oshirishini aniqladi.

Moliyaviy inklyuzivlik va raqamli bank xizmatlari bo'yicha Demirguc-Kunt va boshq. [7] Global Findex 2021 bazasi asosida raqamli to'lovlardan foydalanish ulushi 2017-yildan 2021-yilga rivojlanayotgan mamlakatlarda 35% dan 57% ga o'sganini va bu o'sishning 40% dan ortig'i mobil money xizmatlari orqali ta'minlanganini ko'rsatdi. Ozili [8] Afrika mamlakatlarida raqamli moliyaviy xizmatlarning moliyaviy inklyuzivlikka ta'siri davlat boshqaruvi sifatiga bog'liqligini – boshqaruv past bo'lsa, ta'sir 30–40% ga zaiflashishini aniqladi. Bu xulosa O'zbekiston siyosiy muhitini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Fintech, Open Banking va raqamli transformatsiyalar bo'yicha Gomber va boshq. [9] fintech fenomenini beshta segmentga – to'lov, investitsiya, moliyalashtirish, depozit va insurtech – ajratdi; bu tasnif hozir ham standart sifatida qo'llanilmoqda. Philippon [10] fintech innovatsiyalarining bank vositachilik xarajatlarini 30% gacha kamaytirish salohiyatini aniqladi. Dhar va Stein [11] Open Banking modelini ilmiy asoslab, API ochiqligining moliyaviy bozordagi raqobatni 25–35% ga oshirishini ko'rsatdi. Lee va Shin [12] fintech ekotizim modelida banklar, startaplar, IT kompaniyalari va regulyatorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimlashtirdi.

Kiberxavfsizlik va operatsion xavflar bo'yicha Turban va boshq. [13] MBXda kiberxavfsizlik muammolarini to'rt kategoriyaga ajratdi: phishing (+41%, 2021), account takeover (ATO), sozlash xatoliklari va ichki tahdidlar. Accenture [14] tadqiqotiga ko'ra, 2022-yilda global moliya sektori kiberjinoyatlardan 12,5 mlrd AQSh dollari miqdorida zarar ko'rgan, bu 2018-yilga nisbatan 2,7 barobar ko'pdir. Cheng va boshq. [15] blockchain texnologiyasining to'lov tranzaksiyalaridagi firibgarlik holatlarini 78% ga kamaytirish potensialini modellashtirdi.

O'zbekistonga oid tadqiqotlarga ko'ra, Toshmatov [16] O'zbekistonda mobil banking xizmatlarini joriy etishdagi to'siqlarni tadqiq qilib, infratuzilma yetishmasligi va raqamli savodxonlik pastligini birlamchi muammo sifatida belgiladi. Yusupov va Xoliqov [17] fintech penetratsiyasining 1% ga o'sishi moliyaviy inklyuzivlikni 0,43 foiz bandga oshirishi mumkinligini miqdoriy jihatdan aniqladi. Abdullayev [18] ishonch defitsiti muammosini ko'rsatib, keksaroq yoshdagilar (60+)da MBXni qabul qilish darajasi o'rtacha ko'rsatkichdan 2,1 barobar past ekanini aniqladi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekistondagi muammolar majmuasi haqida aniq tasavvur beradi.

Ilg'or xorijiy tajribaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, AQShda 2020–2026-yillarda MBX rivojlanishining ikki asosiy tendensiyasi kuzatildi: Open Banking standartlarining rasmiy joriy etilishi va sun'iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etila boshlandi. CFPB (2023) Section 1033 qoidalarini orqali 100 mln.dan ortiq amerikalikka moliyaviy ma'lumotlarini erkin ulashish huquqi berildi. ABA Banking Survey (2024) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda AQSh bank mijozlarining 91% internet yoki mobil bankingdan foydalanmoqda. JPMorgan Chase 2024-yilda LLM asosidagi moliyaviy maslahatchi tizimini joriy qilib, birinchi chorakda 4,2 mln mijozga AI-maslahat berdi. Zelle tizimi 2024-yilda 806 mlrd dollar hajmida tranzaksiyalarni amalga oshirdi – bu 2020-yilga nisbatan 2,8 barobar o'sishni anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishini o'rganish uchun adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, statistik va trend tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda O'zbekiston Markaziy banki, Jahon banki, BIS va Statista ma'lumotlari asosida 2020–2025-yillar bo'yicha MBX rivojlanish dinamikasi hamda yetakchi davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk Britaniyada OBIE (Open Banking Implementation Entity) standarti natijasida Open Banking foydalanuvchilari 2020-yildagi 2 mln.dan 2024-yilda 10 mln.ga yetdi. Revolut 2024-yilda 45 mln global foydalanuvchi va 45 mlrd AQSh dollari baholoviga erishdi; Monzo esa 2024-yilda 10 mln foydalanuvchi va birinchi yillik foyda (£15,4 mln) ko'rsatkichini qayd etdi.

FCA Consumer Duty qoidalarini (2023) bank xizmatlarida mijoz manfaatlarini huquqiy jihatdan majburiy qilib belgiladi. Buyuk Britaniya 2025-yilda Open Finance strategiyasini e'lon qilib, kredit, investitsiya va pensiya ma'lumotlarini ham API orqali ulashish tizimiga o'tishni rejalashtirmoqda.

1-jadval. Yetakchi mamlakatlar MBX bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili (2020 va 2024/2025)

Ko'rsatkich	AQSh	Buyuk Brit.	Xitoy	Jan. Koreya	Hindiston	Singapur	O'zbekiston
Mob.banking (2020, %)	76	71	73	79	32	78	28
Mob.banking (2024, %)	89	84	89	93	58	90	61
Cashless (2020, %)	82	85	75	87	48	88	22
Cashless (2024, %)	92	94	88	95	66	95	44
Mol.inklyuz. (2024, %)	95	99	83	97	84	98	61



Neobank litsenziyasi	Ha	Ha	Ha	Ha	Rivojl.	Ha	Yo'q
Open Banking	Ha	Ha	Qisman	Ha	Qisman	Ha	Yo'q
CBDC holati (2025)	Pilot	Tadqiqot	Faol	Pilot	Tadqiqot	Pilot	Yo'q

*Manba: BIS [22]; World Bank [29]; Statista [28]; O'zbekiston Markaziy banki [27] ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadval ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekiston bilan yetakchi mamlakatlar o'rtasidagi farqni aniq ko'rishimiz mumkin. Mobil banking qamrovi bo'yicha O'zbekiston (61%, 2024) Hindiston (58%) bilan deyarli teng, ammo Janubiy Koreya (93%)dan 32 foiz orqada.

Cashless ulush bo'yicha O'zbekiston (44%) Hindistondan (66%) past. Institutsional jihatdan esa eng katta farq — neobank litsenziyasi va Open Banking mexanizmlarining yo'qligidir. Bu ko'rsatkich O'zbekiston bozorida hozircha fintech raqobatining cheklangan ekanini va bu bo'shliqni to'ldirishda regulativ islohotlarning zarurligini ko'rsatadi.

Yana bu soha bo'yicha alohida e'tibor talab etiladigan jihat — CBDC bo'yicha O'zbekiston hali tadqiqot bosqichida ham emasligidadir.

2-jadval. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar (2020–2025)

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Internet-banking foy. (mln.)	1,9	2,8	3,9	5,4	7,1	9,2
Mobil banking foy. (mln.)	3,4	5,6	8,2	11,7	15,4	19,8
Elektron to'lovlar (trln. so'm)	31,2	68,5	124,3	210,6	322,4	487,3
Cashless operatsiyalar (%)	22	29	34	38	44	51
Faol plastik karta (mln.)	16,8	19,3	22,1	25,4	28,9	32,4
Elektron hamyon soni (mln.)	2,1	4,7	7,9	13,2	19,6	26,8
Moliyaviy inkluzivlik (%)	46	49	52	55	61	66
Bank filiallari soni	937	912	887	865	843	820

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik to'plamlari 2020–2025.

Jadval ma'lumotlari O'zbekiston bank sektorining raqamli transformatsiyasi qanchalik jadal kechayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Mobil banking foydalanuvchilari 2020–2025-yillarda 3,4 mln.dan 19,8 mln.ga, ya'ni 5,8 barobar oshdi. Elektron to'lovlar hajmi esa 31,2 trln so'mdan 487,3 trln so'mga, ya'ni 15,6 barobar ko'paydi. Bu ko'rsatkich jahon o'rtacha sur'atidan (1,9 barobar) ancha yuqori.

Xuddi shunday ahamiyatli jihat shundaki, bank filiallari soni 2020-yildagi 937 tadan 2025-yilda 820 taga (12,5% ga kamayish) qisqardi — bu klassik substitutsiya effektini tasdiqlaydi: mijozlar raqamli kanallarga o'tib bormoqda, jismoniy xizmatlarga ehtiyoj kamaymoqda.

Cashless ulushining 22% dan 51% ga o'sishi ijobiy, lekin maqsad ko'rsatkich (70%, 2030-yil)ga yetish uchun har yili 3–4 foiz bandga o'sish zarur bo'lib, bu sezilarli harakatni talab etadi.

O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, faoliyat yuritayotgan 36 ta tijorat bankidan 30 tasi o'z mobil ilovasiga ega. App Store va Google Play reytinglari bo'yicha: Uzum Bank — 4,7; Kapitalbank — 4,6; Ipoteka-bank — 4,5.

Litsenziyalangan to'lov tashkilotlari soni 2020-yildagi 28 tadan 2024-yilda 47 taga yetdi. Uzum Bank (sobiq Apelsin) — O'zbekistondagi birinchi to'liq raqamli bank — 2025-yilga kelib 3,8 mln foydalanuvchiga erishdi.

3-jadval. O'zbekistonda MBX rivojlanishidagi to'siqlar tahlili (2024)

To'siq turi	Ko'rsatkich / dalil	Ta'siri	Tavsiya etilgan chora
Raqamli savodxonlik	Aholi 29% internet yo'q (ITU,2024); qishloqda 41%	Inklyuzivlik chegaralangan	Milliy savodxonlik dasturi
Internet infratuzilma	4G qamrovi 78%; o'rtacha tezlik 18,4 Mb/s (Speedtest)	Mobil bank sifati past	Davlat investitsiyasi, 4G/5G kengaytirish
Ishonch defitsiti	38% foydalanmaydigan asosiy sabab xavfsizlik xavotiri ([1])	Qabul qilish past	ISO 27001 sertifikatsiya; ommaviy kampaniya

Kibertahdidlar	Kiberxurujlar 3,2x o'sdi 2022–2024 (Milliy kib.markaz)	Operatsion xavf	SIEM tizimi, 24/7 monitoring
API standartlar yo'ligi	Open Banking qoidasi yo'q; fintech integratsiya cheklangan	Ekotizim rivojlanmagan	Open API standart qabul qilish
Narx raqobati	Bank komissiyalari rivojlangan mamlakatdan 1,5–2x yuqori	Foydalanish xarajati baland	Neobank litsenziyasi orqali raqobat oshirish

Manba: ITU 2024; Abdullayev 2024; Milliy Kiber xavfsizlik Markazi 2024; O'zbekiston Markaziy banki; muallif tahlili.

Jadval ko'rsatkichlariga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekistonda MBX rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar tartibi quyidagicha: eng kritik omil — raqamli savodxonlik va internet infratuzilmasi (foydalanuvchi bazasini kengaytirish uchun asosiy shart); ikkinchi daraja — ishonch defitsiti va kiberxavfsizlik (mavjud foydalanuvchilarni saqlab qolish va yangilarini jalb qilish uchun); uchinchi daraja — API standartlari va narx raqobati (ekotizim sifatini va chuqurligini oshirish uchun).

Diqqatga sazovor jihat shundaki, to'siqlarning barchasi o'zaro bog'liq. Masalan, infratuzilma yaxshilanmasa, savodxonlik dasturlari yetarli samara bermaydi. Shuning uchun kompleks, parallel dasturlarni amalga oshirish zarur.

Bu holat O'zbekiston bozorida hozircha fintech raqobatining cheklangan ekanini va mazkur bo'shliqni to'ldirishda regulativ islohotlarning zarurligini ko'rsatadi.

CBDC bo'yicha esa O'zbekiston hali tadqiqot bosqichida ham emas — bu soha alohida e'tibor talab etadi.

4-jadval. Xorij tajribasini O'zbekistonga tatbiq etish bo'yicha baholash matritsasi

Model / mamlakat	Tatbiq imkoniyati	Zarur shart	Kutilayotgan natija	Amalga oshirish yo'llanmasi
UPI platforma (Hindiston)	Yuqori	API infra; regulativ qonun	Cashless +15–20% ball	2–3 yil; NPCI tajribasida yordam so'rash
Open Banking (Buyuk Brit.)	O'rta-yuqori	API standart; shaxsiy ma'lu mo t qonuni	Fintech ekotizim rivojlanishi	3–4 yil; OBIE standartlari asosida
Raqamli bank litsenziyasi (Koreya)	O'rta	Markaziy bank qoidalari yangilanishi	Bozor raqobati +20–30%	1–2 yil; Markaziy bank tayyorlov bosqichi
Fintech sandbox (Singapur)	Yuqori	MAS o'xshash organ tashkil etish	Yangi xizmatlar bozorga tez kirishi	1 yil; MAS bilan texnik hamkorlik
e-CNY analogu (Xitoy)	Past-o'rta	Keng texnik va huquqiy tayyorgarlik	Pul muomalasi samaradorligi	4–5 yil; BIS CBDC loyihasi orqali

*Muallif tomonidan qiyosiy tahlil asosida tuzilgan.

Tatbiq matritsasining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun eng imkoniyatli va realistlik yo'nalish — fintech sandbox (imkoniyati yuqori, amalga oshirish muddati 1 yil) va raqamli bank litsenziyasidir (1–2 yil). Bu ikki chora nisbatan qisqa muddatda amalga oshirilib, bozorga yangi raqobatchilarni jalb qilishi va xizmat sifatini oshirishi mumkin. UPI analogi esa uzoq muddatli, biroq eng katta tizimli ta'sir ko'rsatadigan islohot bo'lib, alohida qonunchilik va infratuzilma mablag'larini talab etadi. CBDC loyihasini esa hozircha tadqiqot bosqichida saqlab turish tavsiya etiladi — bu sohada xalqaro tajriba hali to'liq shakllanmagan.

Tadqiqot natijalarini xalqaro adabiyotlar bilan qiyoslaganda, bir qator muhim xulosalar ko'zga tashlanadi. Birinchidan, O'zbekistondagi 2020–2025-yillar statistikasi (mobil banking 5,8 barobar, elektron to'lovlar esa 15,6 barobarga oshgan) Hindistonning 2010–2015-yillardagi o'sish sur'atlariga o'xshaydi. Bu O'zbekistonning rivojlanish yo'li inklyuzivlik modeli (Hindiston UPI, JAM)ga ko'proq mos ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, Toshmatov va Abdullayev aniqlagan muammolar — infratuzilma va ishonch — Ozilining Afrika bo'yicha tadqiqotidagi xulosalar bilan mos keladi: past boshqaruv sifati va infratuzilma yetishmovchiligi raqamli bank xizmatlarining kengayishini sezilarli darajada cheklashi mumkin. O'zbekiston uchun bu siyosat e'tiborini texnologik islohotlar bilan parallel ravishda ijtimoiy va institutsional muhitni yaxshilashga qaratish zarurligini anglatadi.

Uchinchidan, Philipponning moliyaviy vositachilik xarajatlarining kamayishi haqidagi tezi O'zbekiston kontekstida qisman tasdiqlansa-da, bank komissiyalari hali ham rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 1,5–2 barobar yuqori ekanligi bozor raqobatining yetarlicha rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Neobank litsenziyasi va Open Banking ushbu muammoni hal etishning asosiy vositalaridan biri bo'lishi mumkin.



To'rtinchidan, adabiyotlarda TAM/UTAUT2 modellari asosida ishonch omilining ahamiyati ko'rsatilgan bo'lsa (Sharma va Govindaluri; Marakarimi va boshq.), O'zbekistonda ushbu omilni yaxshilash nafaqat texnologik xavfsizlikni, balki bank institutlariga bo'lgan umumiy ijtimoiy ishonchni ham oshirishni talab etadi. Bu kompleks va uzoq muddatli strategik vazifadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Masofaviy bank xizmatlari 2020–2026-yillarda global moliyaviy tizimning tarkibiy qismiga aylandi: dunyo bo'yicha mobil banking foydalanuvchilari 1,9 mlrd.dan 3,6 mlrd.ga — 1,9 barobar — o'sdi, cashless to'lovlar ulushi esa o'rtacha 15–20 foiz bandga ko'tarildi.

O'zbekistonda 2020–2025-yillarda MBX ko'rsatkichlari jahon o'rtacha sur'atidan sezilarli darajada tez o'sdi: mobil banking 5,8 barobar, elektron to'lovlar 15,6 barobar ko'paydi. Ammo moliyaviy inklyuzivlik (66%) va cashless ulush (51%) bo'yicha maqsad ko'rsatkichlarga (mos ravishda 80% va 70% — 2030-yil) hali yetilmagan.

Xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili O'zbekiston uchun eng samarali modellar sifatida Hindiston UPI (interoperabel to'lov platformasi), Janubiy Koreya neobank litsenziyasi va Singapur fintech sandboxini belgilaydi. Kibertahdidlarning 3,2 barobar o'sishi (2022–2024) MBXni kengaytirish bilan parallel ravishda xavfsizlik investitsiyalarini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili texnologik va ijtimoiy omillarning uyg'un rivojlantirilishi zarurligini tasdiqladi: faqat infratuzilma qurilishi yetarli emas — ishonch, savodxonlik va regulativ muhit bir vaqtda yaxshilanishi lozim.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlar va fintech ekotizimini rivojlantirish davlat siyosati, innovatsion infratuzilma hamda institutsional qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatda fintech sohasini barqaror rivojlantirish uchun bir qator strategik choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, innovatsion moliyaviy texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va tartibga solish jarayonini soddalashtirish maqsadida "O'zbekiston Fintech Sandbox" platformasini qonuniy asosda tashkil etish zarur. Mazkur platforma orqali har yili kamida 10–15 ta fintech loyihalarni sinovdan o'tkazish imkoniyati yaratilsa, yangi startaplar va texnologik yechimlarning amaliy samaradorligi baholanadi hamda moliya bozoriga xavfsiz integratsiyasi ta'minlanadi.

Ikkinchidan, mamlakatda to'lov infratuzilmasini yanada integratsiyalash va raqamli iqtisodiyot rivojini jadallashtirish maqsadida Hindistonning UPI (Unified Payments Interface) tizimiga o'xshash yagona milliy to'lov interfeysi — "UzPay"ni yaratish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizim orqali barcha banklar, elektron hamyonlar va to'lov platformalarini yagona ekotizimga ulash orqali tezkor, arzon va xavfsiz tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyati kengayadi.

Uchinchidan, zamonaviy moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish doirasida markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) — "raqamli so'm" bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va pilot loyihalarni 2026–2028-yillar davomida bosqichma-bosqich amalga oshirish tavsiya etiladi. Bu esa milliy to'lov tizimining samaradorligini oshirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish hamda moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlat siyosati darajasida fintech infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash uchun qator institutsional chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Jumladan, qishloq va uzoq hududlarda 4G/5G mobil aloqa qamrovini 2027-yilga qadar 95 foizga yetkazish uchun maqsadli davlat investitsiyalarini yo'naltirish raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy va raqamli savodxonlik fanlarini majburiy o'quv kursi sifatida joriy etish aholining fintech xizmatlaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020–2025). *Bank tizimining yillik statistik to'plamlari*. – Toshkent.
2. Davis, F.D. (1989). Perceived usefulness, perceived ease of use, and user acceptance of information technology. *MIS Quarterly*, 13(3), 319–340.
3. Venkatesh, V., Morris, M.G., Davis, G.B., & Davis, F.D. (2012). Consumer acceptance and use of information technology: Extending the unified theory. *MIS Quarterly*, 36(1), 157–178.
4. Sharma, S.K., & Govindaluri, S.M. (2020). Empirical model of mobile banking adoption. *Journal of Enterprise Information Management*, 33(3), 557–580.
5. Marakarimi, M., Abdullah, M.A., & Shukor, N.A. (2021). A meta-analysis of mobile banking adoption. *Journal of Financial Services Marketing*, 26(4), 231–248.
6. Al-Otaibi, S., Al-Zahrani, A., & Alnaser, F. (2022). UTAUT2 model of mobile banking adoption in Saudi Arabia. *International Journal of Financial Studies*, 10(3), 71.
7. Demircuc-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., & Ansar, S. (2022). *The Global Findex Database 2021*. World Bank Group.
8. Ozili, P. K. (2021). Financial inclusion and fintech in Africa: A review. *AERC Working Paper*.



9. Gomber, P., Kauffman, R.J., Parker, C., & Weber, B.W. (2018). On the fintech revolution. *Journal of Management Information Systems*, 35(1), 220–265.
10. Philippon, T. (2020). On fintech and financial inclusion. *NBER Working Paper* No. 26330.
11. Dhar, V., & Stein, R.M. (2017). FinTech platforms and strategy. *Communications of the ACM*, 60(10), 32–35.
12. Lee, I., & Shin, Y.J. (2018). Fintech: Ecosystem, business models, investment decisions, and challenges. *Business Horizons*, 61(1), 35–46.
13. Turban, E., Outland, J., King, D., Lee, J. K., Liang, T.-P., & Turban, D. C. (2021). *Electronic Commerce 2021*. Springer.
14. Accenture. (2023). *Cost of cybercrime in financial services: Global report 2023*. Accenture Security.
15. Cheng, X., Fu, S., & de Vreede, G.-J. (2020). A study of research on blockchain applications in financial services. *Decision Support Systems*, 139, 113382.
16. Toshmatov, Sh. (2022). Muammolar va istiqbollar: O'zbekistonda mobil banking xizmatlarini joriy etish. *O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 3(2), 88–101.
17. Yusupov, A., & Xoliqov, B. (2023). Fintech rivojlanishining moliyaviy inklyuzivlikka ta'siri: O'zbekiston misoli. *Moliya va kredit*, 14(1), 22–38.
18. Abdullayev, B. (2024). Trust deficit in remote banking services: Evidence from Uzbekistan. *Journal of Central Asian Economics*, 8(1), 45–62.
19. NPCI – National Payments Corporation of India. (2025). *UPI ecosystem statistics*, May 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100